



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 22-iyul

VI-103-91-7-96-K/24

Kattaqo‘rg‘on tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PQ-31-sonli Qarorining tumandagi ijrosi to‘g‘risida”gi axboroti haqida**

Tumandagi mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samardorligini oshirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axborotini tinglab hamda yuqorida bayon etilganlarga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 103-sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PQ-31-sonli Qarorining tumandagi ijrosi to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov) sessiya muhokamasida ko‘rsatib o‘tilgan tumandagi Omonkalxat, Katatqming, Bog‘ot, Andoqsoy, Fayzikent, Qushbegi, Jizmonsoy MFY hokim yordamchilari tomonidan fuqarolar tomonidan murojaatlar soni ortganligi yuzasidan qo‘shimcha chora tadbirlar belgilash vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi (E.Raximov) mahallalarda yashovchi aholi murojaatlarini ijobiy xal etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN  
XOLIKULOVICH